

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO‘NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN**



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

**PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**



**ANDIJON-2024. 10-IYUN**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

**Mas‘ul muharrir(lar):**

**f.f.n., prof. S.O.Solijonov**

**Tahrir hay‘ati:**

**f.f.d.prof. D.A.Rustamov**  
**f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev**  
**PhD. dots. M.A.Qurbonov**  
**f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov**  
**f.f.d.prof. V.A.Vositov**  
**PhD. dots. M.G‘.Xoshimov**  
**p.f.n. prof. Sh.S.Alimov**  
**PhD. G.M.Ibragimova**  
**PhD. Q.Umrzakov**  
**kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov**  
**kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova**

**Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:**

**A.A.Xomidov**

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

1. Voir L. Benedetto, *Le origini di Salammbô*, p. 191 ;Hamilton, *Sources of religions elements in Flaubert's Salammbô*.
2. Voir Foucart, *Des Associations religieuses chez les Grecs*, Paris, 1873. P. 77
3. Ces deux faits sont aussi rapportés dans Rolle. *Origines, attributs cultes des principales divinités helléniques*. Paris. 1828 . (t. 1. PP. 60 et 134)
4. Montfaucon. *l'Antiquité expliquée*, 1719-1724 , liv. II, suppl., pp. 144 et 148 .
5. Demorest, L'expression figurée et symbolique dans l'œuvre de Gustave Flaubert, pp. 493-495

## “QISSASI RABG’UZIY” ASARIDA QO’LLANGAN IBORALARNING SHAKLLANISH ASOSLARI. TIL LEKSEMASI ASOSIDA IFODALANGAN FRAZEOLOGIZMLAR

U.Farmonova, FarDU o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Qisasi Rabg’uziy asarida qo’llangan frazeologik birliklarning shakllanish asoslari tahlil qilingan. Asardagi somatizmlar asosida hosil qilingan iboralar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, leksema, somatizm.

Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg’ulari, ya’ni uning o‘zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o‘z ifodasini topadi.

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o‘ziga xos fe’l-atvorga ega ekanligi asar tilini tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Haykaltaroshlik sohasida haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar esa g’ishtdan, oynadan, po’latdan quriladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, bo‘yoqlar vositasida emas, so‘zlar vositasi bilan yaratilishida ko‘rinadi. Badiiy til har qanday adabiy asarning spetsifikatsiyasini belgilaydigan eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchisida turadi”[3.87]. Badiiy asar tahlilida fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik tahlillardan tashqari asar qahramonlari shaxsiyatini ochib berishda iboralarning roli benihoya ahamiyatlidir.

Frazeologizmlar, asosan, shaxs tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning biror tarzda tasavvuri, xati-harakati, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Somatik (yunonchada *µoma - tana*) frazeologizmlarni inson yoki hayvon tanasining bir qismi nomini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar tashkil etadi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalanitirish va muayyan kasb-korga bog‘liqligi jihatidan ham shakllanadi.

Tana a’zolarining nomlari lug‘atning eng qadimgi qatlami bo‘lib, u inson mavjudligining funksional va hissiy jihatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u yoki

bu til hamjamiyatiga mansub shaxslarning madaniy va antropologik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday lug'at somatik deb ataladi, ya'ni u inson tanasining qismlari va tanasining ko'rinishlarini bildiradi va turkiy tillarning eng qiziqarli leksik-semantik guruhlaridan biri sifatida ajralib turadi. Somatizmlar ko'p ming yillar davomida shakllangan asosiy lug'at fondiga tegishli bo'lib, nafaqat ona tilida so'zlashuvchilarning atrofida dunyo haqidagi bilimlarini, balki ularning o'zlari va tanasi haqidagi g'oyalarini ham aks ettiradi.

“Qisasi Rabg'uziy” asarida inson tana a'zolari nomlari ya'ni somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlar juda ko'p miqdorni tashkil etadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

*Til* leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar:

“*Til*” - insonning fe'l-atvori, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, boshidan kechirgan voqea-hodisalar haqida xabar beruvchi aloqa vositasi hisoblanadi. *Til* muloqot uchun javobgardir. Ko'pincha bu salbiy va ijobiy ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”[5.243] da “*til*” haqida quyidagicha ta'rif berilgan:

1. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish, og'izga ovqat olish, yalash va shu kabilar uchun xizmat qiladigan muskulli a'zo. Aytsam, *tilim kuyadi*, aytmasam – dilim (Maqol); Shirasi *tilni yoradigan* qoramayizlarni faqat Xatirchi sharoitidagina yetishtirish mumkin (Gazetadan);
2. Tig'ga o'xshash, uchli narsa. Shamol kuchayib, *olovning tili* yana ham uzunlashdi (S.Ahmad, Ufq);
3. Kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti. Odam *tilidan topar*, ho'kiz – muguzidan(Maqol);
4. Sozlash, gapirish, fikr ifodalash qobiliyati. Uch-to'rt daqiqalik sukutdan keyin Otabek *tilga kirdi* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar);
5. Fikr ifodalash jarayoni va bu jarayonda yuzaga keluvchi so'z, ibora, gap, nutq. Singling qiz dilini bilib chiqsin. Xo'p desa, *til biriktirib*, bir kechada ura qochasanlar (Oybek, Tanlangan asarlar);

“*Til*” leksemasi ishtirok etgan iboralar o'zbek tilshunosligida ko'p miqdorni tashkil etadi. Masalan: *til biriktirmoq* - yashirin holda kelishib olmoq (Biroq yanagi yilga bu muruvvatning misi chiqibdi: boylar bu ishni knyaz bilan *til biriktirib* qilishgan ekan. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari); *tili achchiq* - kishining ta'biga tegib gapiradigan (Elmurodga rota komandiri yoqmadi: qalampir, *tili achchiq*, har gapni pasanda qilganday burab gapiradi (Shuhrat, Shinelli yillar); *tili bir qarich* - gapirishga, maqtanishga haqli bo'lmoq (O'lganday besabr ekansan, sening nima ishing bor, tinchkina tomoshangni qilib o'tiravermaysanmi?” - “Voy, tilingiz *tilingizni bir qarich qilib* gapirishni bilasiz; sizning otangiz ham shunday ishlab ko'rsin-chi”.Oydin, Bechora)[4.492] va boshqalar.

“Qisasi Rabg'uziy” asarida ham “*til*” leksemasi ishtirok etgan iboralar juda ham go'zal shakllarda bayon etilgan. Masalan, *tilga kelmoq* iborasi qo'llangan bo'lib, u “gapirmoq” ma'nosini anglatadi:

Aymishlar, qachon Sulaymon tog'din kechar bo'lsa, ul tog'dagi oltun, kumush nekim bor ersa barchasi tilga kelur erdi.

Aydilar: “Ey malika, bir tilg'a kelib saroyg'a kirarman teyur”.

Bundan tashqari, asarda *til ochmoq* iborasi ham “gapirmoq” ma'nosida qo'llangan: Kofirlar til ochib jaf o'qin otdilar.

Asarda *til bermoq* iborasi ham qo'llangan bo'lib, u Alloh taoloning insonlarga gapirish qobiliyatini tuhfa etishi ma'nosini ifodalaydi:

Mavlo taolo Arxamg'a til berdi.

Mavlo taolo kubga til berdi, aydi: “Man odam erdim, o'ldum. Telim yillar kechti. Etim, tanim, so'ngukim churidi, tuproq bo'ldi. Ul tuproqdin kub qildilar. Suv achchig'i jon achchig'i turur,” tedi.

Mavlo taolo ul itga til berdi. Aydi: “Mani ne uchun yondurursiz? Siz borg'an Tengrig'a men ham borurman”.

*Tilga keltirmoq* iborasi ham *til bermoq* iborasining variantidir:

Mo'jizalar ko'rguzding: “Oyni ernak birla yording; so'klunmish o'g'loqni tarkida so'zlatting; ilkingdagilarni tilga kelturding; qurug' yig'ochni yoshartting; yemishsiz yig'ochni duo birla ne'matlig' qilding; ushog' toshni tasbihga kelturdung; tamug'g'a boru turg'anlarni yondirib ujmoh yo'linga boshlading”.

Quyidagi gapda esa *til bo'lg'uncha* iborasi qo'llangan bo'lib, u “biz aytmagunimizcha” ma'nosini anglatadi:

Misrni sen bilgil, bizdin *til bo'lg'uncha* taqi dod qo'lg'uchini bizga izmag'il.

*Tili og'ir bo'lmoq* iborasi “gapirmaslik” yoki “gapira olmaslik” ma'nolarini anglatadi:

Yorlig' keldi: Belgi ul tururkim, uch kun tiling og'ir bo'lg'ay, kishiga so'zlay bilmag'aysen.

*Tilida kechmoq* - ichida gapirmoq yoki o'ylamoq:

Zakariyo xaloyiqg'a va'z aytib majlis tutar erdi. Tilinda tamug' so'zi kechti.

Asardan olingan quyidagi gapda *til olg'uchi* iborasi qo'llangan bo'lib, bu ibora “dushman ichida yurib, uning sirlarini bilib oluvchi shaxs” ma'nosini anglatadi:

Shohbazod Kisorning qatinda til olg'uchisi bor erdi, xabar izti.

Ko'rinadiki, til leksemasi ishtirok etgan iboralarning aksariyati gapirish faoliyati bilan bog'liq. Asarda bu guruhga kiruvchi boshqa iboralar ham ko'plab qo'llangan.

Masalan:

Bir jodu sensen, bir jodu Muso. Aning uchun so'zingiz bir kelur.

Ul so'zinga yetti.

Ont ichti: “Man bitimadim, kim ersaga bitik bitimadim”.

Aymishlar, Ja'far Tayyor ularning birlan munozara qilurda so'zda ilindi.

Necha o'gut berib ezgulik birla o'tru yuridi - bo'ysunmadilar

Qo'porg'il tedilar, unamadilar, “Muhammad kelib Xudaybiyaqa tushmish”, teb til bo'ldi.

Ul kechmish qissalarni aytti: “Otam manga uch nasihat qilmish erdi, ani sinag'ayin teb bu ishni qildim. Otam so'zi rost chiqti”.

Manim so'zumga kirmas ersangiz, man borub anga bo'lushurman.

*Sir ichinda tutmoq* iborasi *sir saqlamoq* iborasining tarixiy ko'rinishidir:

Bu so'zni Umar taqi Abu Jahl ikkilari ishittilar. Abu Jahl aydi: “Ey Umar, bu so'zni sir ichinda tutg'il.”

*Dam urmadi* iborasi “gapirmadi” ma'nosini anglatadi:

Umar qilich uchi birla qarindoshini sanchti. Yemadi, dam urmadi.

Xulosa qolib aytganda, Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlar katta miqdorni tashkil etadi. Jumladan, *ko'z, til, og'iz, yuz, bosh, qo'l, barmoq, yurak, o'pka, qosh, quloq, oyoq vabo'yin* leksemalari orqali hosil qilingan frazeologizmlar shaxsning biror tarzda asavvuri, xatti- harakati, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalashga xizmat qilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2007.
2. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол.фанлари.докт.дисс. автореф... - Т., 1999.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent: 2008.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Т., 1992.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik, 2-tom. - Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

### BALZAK ASARLARIDAGI IJTIMOYIY-AXLOQIY MA'NONI BERUVCHI SO'ZLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Razoqova Gulchiroy

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Suvonova N.N.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pragmatikistikaning ob'ekti bo'lgan nutqiy akt funksiyalari va ularning asosiy kategoriyalari tahlil qilingan. Turli kategoriyaga xos nutqiy aktlar badiiy asarlardan olingan misollar orqali atroflicha o'rganilgan.

**Kalit so'z:** Nutqiy akt, lokutif, illokutif, komissiv, pragmatika, assertiv, direktiv, deklarativ.

Pragmatika (yunoncha pragma, pragmatos - ish, harakat) - semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Charlz Sanders Pirs tomonidan o'rta tashlangan; yana bir amerikalik olim Charlz Uilyam Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va " Pragmatika " terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

68.	IJODKOR ASARLARI LUGATSHUNOSLIGI Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich	219
69.	TURG'UN BIRIKMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI Askarova Iroda Abdumali kizi	223
70.	INGLIZ TILIDAGI SUPERSEGMENT BIRLIKLAR (BO'G'IN, URG'U, INTONATSIYA) NING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI Saynazarova Mashhura	226
71.	ТУРЛИ ТАРИХИЙ ДАВРЛАРДА ХУШМУОМАЛАЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ Мавлонова Ўғилой Ҳамдамовна	230
72.	MEDIA MATNLARIDA KOMIKS TUSHUNCHASINING TALQINI. (JURNALISTIKA SOHASIDA) Axmedova Gulxumor Nodirbek qizi	233
73.	FRANSUZCHA MATBUOT MATNLARIDAGI IBORALARNING AYRIM SEMANTIK XUSUSIYATLARI Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna Miyassarova Nozima Ahmad qizi	236
74.	“FASHION” TERMINING LINGVISTIKADA TUTGAN O'RNI Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi	239
75.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TOPONIMIK KONVERSIYA MASALASI Pazilova Nasibaxon Muhammadqosimovna	241
76.	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK MAYDON KO'LAMI No'monova Zebinso Usmonjon qizi	245
77.	FRANSUZ MATBUOT MATNLARIDA SHOK-TAYMENTNING FRAZELOGIK BIRLIK KLAR ORQALI IFODALANISHI Suvonova Nigorabonu Norboyeva Nuriniso	249
78.	PLACE OF ORIENTAL LANGUAGES IN THE FRENCH DICTIONARY Xasanova Dilnoza Tojiddinovna	252
79.	THE CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S SPEECH AND ITS THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS Davlatova Xulkaroy PhD Shohrux Ergashev Qurbonali o'g'li ,	255
80.	DESCRIPTION DES CEREMONIES RELIGIEUSES DANS LE ROMAN DE “SALAMMBO” Mamadaliyeva Shaxzoda Qilicheva G.N.	257
81.	“QISSASI RABG'UZIY” ASARIDA QO'LLANGAN IBORALARNING SHAKLLANISH ASOSLARI. TIL LEKSEMASI ASOSIDA IFODALANGAN FRAZELOGIZMLAR U.Farmonova	259
82.	BALZAK ASARLARIDAGI IJTIMOYIY-AXLOQIY MA'NONI BERUVCHI SO'ZLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI Razoqova Gulchiroy Suvonova N.N.	262
83.	SAYOHAT TERMINLARINING NUTQDAGI LINVOMADANIY VA LINVOPRAGMATIK JIHLTLARI TADQIQI G'oyiberdiyev Farog'iddin Dilshodbek o'g'li	265
84.	O'G'ZAKI NUTQNING STRUKTUROVIY VA SEMANTIK	267